

**NAMOZSHOMGUL O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI****M.A.Xalmuratov**

DTPI o'qituvchisi.

**N.Xalilova**

Biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530018>

**Annotatsiya.** *Mirabilisning noyob turi, vatani Amerika Qo'shma Shtatlari bo'lib, buta federal darajada yo'qolib ketish xavfi ostida ro'yxatga olingan. Bu ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, kurtaklari 1-2,5 metrgacha o'sadi. Ushbu maqolada nomozshomgul o'simligining xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Mirabilis odorata L, kosmetologiya, manzarali o'simlik, nomozshomgul.*

**FEATURES OF THE PRAYING MANTIS PLANT**

**Abstract.** *A rare species of Mirabilis, native to the United States, the shrub is federally listed as endangered. This is a perennial herb, the shoots of which grow up to 1-2.5 meters. This article provides information about the characteristics of the nomozshomgul plant.*

**Key words:** *Mirabilis odorata L, cosmetology, ornamental plant, non-flowering plant.*

**ОСОБЕННОСТИ РАСТЕНИЯ БОГОМОЛ**

**Аннотация.** *Редкий вид мирабилиса, произрастающий в США, кустарник занесен в федеральный список как находящийся под угрозой исчезновения. Это многолетняя трава, побеги которой вырастают до 1-2,5 метров. В данной статье представлена информация об особенностях растения номозшомгуль.*

**Ключевые слова:** *Mirabilis odorata L, косметология, декоративное растение, нецветковое растение.*

Boshqa yurtlardan keltirilgan manzarali o'simliklarni yangi iqlim sharoitiga moslashtirish va ularni ekinlar qatoriga kiritish katta ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston qishloq xo'jalik tarmog'ining tibbiyot sanoati hamda dorixonalarini yetarli miqdorda xom ashyo bilan ta'minlash maqsadida o'simlikshunoslikni rivojlantirishga qaratilgan.

Respublikamizda xom ashyosi tibbiyotda ishlatiladigan 230 turdagi o'simlikdan 159 turi yovvoyi holda, qariyb 50 turi ekib o'stiriladigan o'simlikdir.

Nomozshomgulning (*Mirabilis odorata L.*) ichak tizimi, jigar, kolit va bavo-sil, oshqozon va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

O'zbekiston sharoitida dorivor o'simliklar introduksiyasi - import hisobiga keltirilayotgan xom ashyo sarf xarajatlarini kamaytiribgina qolmay, mahalliy sharoitimizdagi bioxilma - xillikni boyitib, aholining dorivor o'simliklarga bo'lgan talabini qisman qondiradi [2].

Shunday introdusentlar qatoriga kiruvchi Nomoshomgulning (*Murabilis odorata* L.) kelgusida mamlakatimiz xalq xo'jaligida, jumladan, aholi sog'lig'ini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Nomoshomguldoshlar (*Nyctaginaceae* Juss) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik (*Murabilis odorata* L.). Manzarali o'simlik sifatida esa bir yil mobaynida parvarish qilinadi.

Oilaning 60 yaqin turlari bo'lib, Amerikaning issiq o'lkali xududlarida o'sadi [3].

*Mirabilis* lotin tilidan olingan bo'lib, "ajoyib" degan ma'noni bildiradi. O'simlikning gullari kunning yarmida ochiladi, shuningdek kechasi va keyingi ertalabgacha ochiq xolatida bo'ladi. Nomoshomgul issiqsevar, qurg'oqchilikka chidamli o'simlik.

Sovuq iqlim kuzatiganda gullarning ochilishi kuzatilmaydi. Nomoshomgulni yetishtiradigan tuproq yengil va neytral muhitga ega bo'lishi lozim, kislotali muxitda o'simlik o'smaydi. O'simlik bo'z tuproqli ishqorli muxitda yaxshi o'sadi.

Nomoshomgul urug'idan, qalamchalaridan va ildizpoyasidan ko'payadi, urug'idan ko'paytirish qulay usul xisoblanadi. O'simlik urug'lari uzoq muddat saqlanadi, urug'larni baxorda plyonka ostiga sepiladi. Baxor mavsumida o'z urug'idan tabiiy ko'payish xolati kuzatiladi.

Xar yili o'simlikdan pishib yetilgan urug'lar xosil bo'ladi, uch yilgacha urug' o'z unuvchaligini yuqotmaydi. Tuproqqa sepilgan urug'lar xaftada, namlab ekilgan urug'lar esa ikki kunda unishni boshlaydi.

O'simlik tugunaklarini +7 atrofida saqanganda yaxshi samara beradi.

Nomoshomgul kasallik va zararkunandalarga chidamli xisoblanadi. Gulchilikda nomoshomgulning o'z o'rni bor. Nomoshomgul gullari quyosh botishi oldidan ochila boshlaydi, shuning uchun uning nomi xam shu xususiyatidan olingan.

Ko'p yillar mobaynida nomoshomgulning g'uncha va gullarining rangi turlicha bo'lgan navlari ishab chiqilmoqda. Asosan qizil va sariq ranglari ko'proq uchraydi. Nomoshomgul ochiq joyda o'stiriladi, kuchli shamollar xam keskin ta'sir ko'rsatmaydi, novdalari esa sinib ketmaydi.

Nomoshomgul ko'chatlarining oralig'i 40 - 50 sm bo'lishi zarur va me'yor chuqurlikda o'tkaziladi. Namlik yetarli bo'lmaganda g'unchalarning shakllanishi muddati uzayib ketadi, lekin o'simlik mavsum oxirigacha gullaydi [2].

O'simlikning balandligi bir metrgacha yetadi. Keyingi yillarda past bo'yli balandligi 40 sm dan oshmaydigan navlari yaratilgan.



### Nomozshomgul gullari

Ko'p yillar mobaynida nomozshomgulning g'uncha va gullarining rangi turlicha bo'lgan navlari ishlab chiqilmoqda. Asosan qizil va sariq ranglari ko'proq uchraydi. Nomozshomgul ochiq joyda o'stiriladi, kuchli shamollar xam keskin ta'sir ko'rsatmaydi, novdalari esa sinib ketmaydi.

Nomozshomgul ko'chatlarining oralig'i 40 - 50 sm bo'lishi zarur va me'yor chuqurlikda o'tkaziladi. Namlik yetarli bo'lmaganda g'unchalarning shakllanishi muddati uzayib ketadi, lekin o'simlik mavsum oxirigacha gullaydi [2]. O'simlikning balandligi bir metrgacha yetadi. Keyingi yillarda past bo'yli balandligi 40 sm dan oshmaydigan navlari yaratilgan.

Kosmetologiya va an'anaviy tibbiyotda turli teri kasalliklari (terli dog'lar, kuyishlar va tirnash xususiyati, furunkullar, yosh bolalarda ekzema) uchun samarali, og'iz bo'shlig'ining yuqumli kasalliklarini davolaydi, gulining gastrit, meteorizm, gaz, kolit, spazmlar va boshqalar bilan kurashishda, shuningdek, o't pufagi, jigar va siydik-jinsiy tizimni davolashda samarali ekanligi aytilgan.

### REFERENCES

1. Экология цветения и опыления растений // Межвузовский сборник научных трудов. – Пермь, 1989. – 143 с.
2. M.A.Xalmuratov.,D.Sodiqova.,M.Hamroyeva va boshqalar. Botanika tadqiqot usullari.O'quv qo'llanma.Toshkent-2023.-45b.
3. D.G'.Sodiqova., D.A.Jumayeva. Manzarali o'simliklar. Toshkent.-2023.-64b.
4. L.H. Yoziyev, Sh.A. Samatova. Manzarali o'simliklar / Darslik / Qarshi: —"Sharq" nashriyoti, 2023. – 335